Аннотация. В статье проанализированы основные реформы и инициативы по развитию использования возобновляемых источников энергии в Узбекистане. Освещаются вопросы финансовой поддержки граждан при установке систем солнечной энергетики за счет налоговых льгот, субсидий и кредитных механизмов. Особое внимание уделено стимулированию населения к установке солнечных панелей, а также возможностям быстрой окупаемости инвестиций и их экономической эффективности. Проанализировано социально-экономическое значение налоговых льгот, предоставляемых при внедрении возобновляемых источников энергии, и разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: зеленая экономика, налоговые льготы, солнечные панели, физические лица, имеющие льготы по налогу на имущество и землю, бюджетные субсидии, возобновляемые источники энергии.

KIRISH

Jahonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va moliyalashtirishga ko'plab mamlakatlarda alohida e'tibor qaratilmoqda. “Yashil iqtisodiyotga o'tish indeksi” (Global Green Economy Index — GGEI) orqali butun dunyoda



yashil iqtisodiyot samaradorligi baholanadi hamda mazkur indeksni shakllantirishda iqlimni boshqarish va iqlim o'zgarishi, sektorlar samaradorligi, bozor va investitsiyalar, shuningdek, atrof-muhit holati kabi to'rtta asosiy yo'nalish mezonlaridan foydalaniladi. 2023-yilda 154 ta davlat ushbu indeks bilan qamrab olingan bo'lib, shundan Afrikadan 41 ta, Osiyodan 44 ta va Yevropadan 39 ta davlat indeksda ishtirok etgan. Qit'alar kesimida Yevropa mamlakatlari o'rtacha 60—80 ball oralig'ida natija ko'rsatgan bo'lsa, 20—40 ball oralig'idagi ko'rsatkichlar asosan Osiyo va Afrika mamlakatlariga to'g'ri keladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish indeksida Shvetsariya 77,14 ball, Germaniya 74,70 ball, Fransiya 68,69 ball, Xitoy 68,12 ball, Singapur 51,83 ball, Rossiya 60,19 ball, Qirg'iziston 55,43 ball, Qozog'iston 54,78 ball, Tojikiston 51,54 ball hamda O'zbekiston 38,66 ball ko'rsatkichni qayd etgan [1].

Yashil iqtisodiyot indeksi yuqori bo'lgan mamlakatlarda asosiy e'tibor qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va uglerod chiqindilarini qisqartirishga qaratilib, ushbu maqsadlarga erishishda tariflar, grantlar, subsidiyalar, kreditlar hamda "yashil" soliqqa tortish kabi moliyaviy va fiskal mexanizmlar faol qo'llanilmoqda [2]. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, O'zbekistonda ham qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslarni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va subsidiyalar joriy etilgan bo'lib, bunda AQSh va Hindiston tajribasi asosida jismoniy shaxslarga 3-yillik soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati nazarda tutilgan. Shuningdek, yuridik shaxslar tomonidan qo'shimcha xarajatlar amalga oshirilganda foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar berishda AQShning 2032-yilgacha va Hindistonning 2030-yilgacha bo'lgan amaliyoti inobatga olingan.

O'zbekistonda quyosh panellarini o'rnatganlarga beriladigan soliq imtiyozlarini jahon tajribasiga moslashtirish hamda subsidiyalarni jismoniy shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 1 kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarish narxiga nisbatan belgilash taklif etilmoqda. Jumladan, 2023-yilda 1 kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxi 895 so'mni tashkil etgani inobatga olinib, subsidiya miqdorini hisob-kitob uchun qulay va rag'batlantiruvchi darajada — 1 000 so'm miqdorida belgilash maqsadga muvofiq ekani asoslanadi, bu esa aholini quyosh panellarini o'rnatishga yanada qiziqtiradi hamda investitsiyalarning qisqa muddatda qoplanishiga imkon yaratadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar natijasida so'nggi yillarda fuqarolarni arzon va muqobil energiya manbalaridan foydalanishga rag'batlantirish, ularning energiya sarfini kamaytirish hamda energiya tejamkorligini oshirish maqsadida quyosh panellarini o'rnatish uchun subsidiyalar ajratish ishlari izchil ravishda jadallashtirilmoqda. O'zbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlar doirasida 2030-yilgacha yangi energiya manbalarini keng joriy etish rejalashtirilgan bo'lib, bunda quyosh energetikasiga alohida e'tibor qaratilmoqda, davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kreditlar orqali fuqarolarga moliyaviy yordam ko'rsatilmoqda hamda xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda investitsiyalarni jalb etish bo'yicha izchil choralar amalga oshirilmoqda. Mamlakat bo'ylab yirik quyosh energetika loyihalari, jumladan, Navoiy viloyatida 100 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasini qurish loyihasi, shuningdek, Toshkent viloyati va boshqa hududlarda kichik va o'rta quvvatli stansiyalarni barpo etish ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar va donor mamlakatlar, xususan, Yaponiyaning JICA (Japan International Cooperation Agency) tashkiloti hamda ayrim global kompaniyalar tomonidan O'zbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirishga investitsiyalar kiritilmoqda va zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda, energiyani saqlash tizimlari va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlarining samaradorligi oshirilmoqda, energetika tarmog'ini modernizatsiya qilish va quvvatlarni kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, aholiga quyosh panellarini o'rnatish uchun subsidiyalar taqdim etilishi energiya tejamkorligi va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni yanada rag'batlantirmoqda hamda yashil energiya ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida karbon kreditlari tizimini joriy etish bo'yicha ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor izchil ravishda ortib bormoqda va amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat energetika tizimini diversifikatsiya qilish, barqaror hamda ekologik toza energiya ta'minotini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llashni rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlaridan biri xususiy investorlar tomonidan infratuzilmani yaratish bilan bog'liq bo'lgan tarqalish ta'siridan kelib chiqadigan qo'shimcha soliq tushumlaridan foydalanish va ularni qaytarish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Bir qator ilmiy tadqiqotlar, jumladan, Yoshino va Tagizade-Hesarining 2017-yil va 2018-yildagi ishlari yashil energiya loyihalarining turli sohalarga hamda mintaqaviy yalpi ichki mahsulotga (YaIM) ta'sirini chuqur tahlil qilgan [3].

Jahon mamlakatlari qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llashni rag'batlantirish va issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish maqsadida turli xil siyosiy va iqtisodiy vositalarni joriy etmoqda. Asosan, fiskal va



moliyaviy rag'batlantirish eng keng tarqalgan hamda samarali qo'llaniladigan vositalar sifatida namoyon bo'lib, ular tariflar, grantlar, subsidiyalar, kreditlar hamda soliqqa tortish kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi [4].

Boshqa bir nazariy yondashuvga ko'ra, UNEP mutaxassislari uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun qo'llaniladigan strategiyalar ko'p qirrali ekanini ta'kidlab, ularga moliyaviy va fiskal mexanizmlar, axborot va ta'lim siyosati, siyosatni qo'llab-quvvatlashning turli shakllari, tartibga solishni takomillashtirish hamda tadqiqot va ishlanmalarga alohida e'tibor qaratishni kiritadilar. Soliq imtiyozlari va subsidiyalar ko'rinishidagi samarali tartibga solish hamda rag'batlantirish choralari xususiyl sektorini ushbu yo'nalishda yanada faollashtirishga xizmat qiladi [5].

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri Abdurahim Vahobov hisoblanadi. A.V. Vahobovning ta'kidlashicha, "yashil iqtisodiyot" ko'proq amaliy ahamiyatga ega bo'lib, real iqtisodiy siyosat va aniq faoliyat sohalari, xususan, energetika, innovatsiyalar, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlar bilan bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari, makroiqtisodiy nuqtayi nazardan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, milliy boylikni ko'paytiradi, qayta tiklanadigan resurslarning o'sishini ta'minlaydi hamda ekologik risklarning kamayishiga olib keladi, degan xulosaga kelinadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni yig'ish hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, xalqaro hisobotlar va ilmiy adabiyotlar manbalaridan olindi. Shuningdek, ekspert intervyulari orqali sifatli ma'lumotlar to'planib, ular kontent tahlili yordamida tizimlashtirildi. Qiyosiy tahlil usuli O'zbekiston tajribasini boshqa davlatlar amaliyoti bilan solishtirish imkonini berdi hamda asosiy ilmiy xulosalarni shakllantirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xususan, 2024-yilning yanvar–iyul oylarida qariyb 5 ming kishi ushbu dasturdan foydalangan bo'lib, elektr tarmoqlariga uzatilgan quyosh energiyasi uchun 4,8 milliard so'm (taxminan 4,8 million kVt/soat) miqdorida subsidiya ajratilgan. Shuningdek, 2024-yilning yanvar–oktabr oylarida 6 536 nafar jismoniy shaxs mazkur dasturdan foydalanib, elektr tarmoqlariga uzatilgan quyosh energiyasi uchun 10 milliard 563 million so'm (10 million 563 ming 890 kVt/soat) miqdorida davlat budjetidan subsidiya olgan. Bundan tashqari, 2024-yil yakuniga ko'ra, o'rnatilgan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan 12 182 090 kVt/soat elektr energiyasi uchun 10 826 nafar jismoniy shaxsga jami 12 182,1 million so'm miqdorida subsidiya ajratilgan.

1-jadvaldagi ma'lumotlardan anglashiladiki, o'rnatilgan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun jismoniy shaxslarga Davlat budjetidan ajratilgan subsidiyalar bo'yicha Soliq qo'mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga tayanib hisob-kitoblarni amalga oshirilgan. Ushbu hisob-kitoblarga ko'ra, 2025-yil uchun prognoz va 2030-yilga mo'ljallangan ko'rsatkichlar aniqlanib, ajratiladigan subsidiya miqdori 2025-yilda 15 761,4 million so'mni, 2030-yilda esa 36 548,9 million so'mni tashkil etishi rejalashtirilmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda o'rnatilgan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun jismoniy shaxslarga budjetidan ajratilgan subsidiya bo'yicha 2024 yil ijrosi va 2025 yil prognozi hamda 2030 yil mo'ljallari[7]¹

T/r	Hudud nomi	2024 yil		2024 yil	2025 yil prognoz	2030 yil mo'ljal
		Subsidiya ajratilgan fuqarolar soni	kVt/s			
	Respublika bo'yicha	10 826	12 182 090	12 182,1	15 761,4	36 548,9
1.	Qoraqalpog'iston Res.	2 737	1 985 567	1 985,6	2382,7	5480,3
2.	Andijon viloyati	126	200 953	201,0	261,3	574,9
3.	Buxoro viloyati	666	785 680	785,7	1100,0	2640,0
4.	Jizzax viloyati	356	332 184	332,2	498,3	1146,1
5.	Qashqadaryo viloyati	505	781 180	781,2	937,4	2249,9
6.	Navoiy viloyati	800	608 008	608,0	790,4	1817,9
7.	Namangan viloyati	525	420 505	420,5	588,7	1354,0
8.	Samarqand viloyati	453	561 564	561,6	842,4	1853,3

1 Muallif tomonidan yaratildi.



9.	Surxondaryo viloyati	238	303 936	303,9	364,7	802,3
10.	Sirdaryo viloyati	383	385 434	385,4	501,0	1152,3
11.	Toshkent viloyati	753	813 842	813,8	1139,3	2620,4
12.	Farg'ona viloyati	439	689 257	689,3	1034,0	2274,7
13.	Xorazm viloyati	2 045	2 868 740	2 868,7	3442,4	8261,9
14.	Toshkent shahri	800	1 445 240	1 445,2	1878,8	4321,1

Hududlar kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rnatilgan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun eng ko'p subsidiyalar ajratilgan hudud hisoblanadi: bu yerda 2 737 nafar (25,3 foiz) jismoniy shaxsga 10 562 ta (26,9 foiz) holat bo'yicha jami 1 985,6 million so'm (16,3 foiz) miqdorida subsidiya ajratilgan. Hududlar miqyosida ikkinchi o'rinni Xorazm viloyati egallab, tahlil qilinayotgan davrda 2 045 nafar (18,9 foiz) jismoniy shaxsga 8 870 ta (22,6 foiz) holat bo'yicha 2 868,7 million so'm (23,5 foiz) subsidiya ajratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich har bir fuqaro hisobiga o'rtacha 1,4 million so'mni tashkil etadi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ham subsidiya ajratish hajmi nisbatan yuqori bo'lib, mos ravishda 2 926 va 2 307 ta holatda subsidiya ajratilgan, bu hududlar tegishli 1 445,2 million so'm va 813,8 million so'm miqdoridagi subsidiya summalariga ega. Ayrim hududlarda, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida subsidiyalar soni hamda kVt/soat ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bu holat ushbu hududlarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish faolligining ortib borayotganini ko'rsatadi. Andijon va Surxondaryo viloyatlarida esa mazkur ko'rsatkichlar nisbatan past bo'lsa-da, bu hududlarda ham quyosh panellarini o'rnatish salohiyati mavjud bo'lib, kelgusida rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish orqali faollikni oshirish imkoniyati mavjud.

Ajratilgan subsidiyalarni har bir fuqaro kesimida samaradorlik nuqtayi nazaridan baholaganda, eng yuqori natija Toshkent shahrida qayd etilib, bu yerda o'rnatilgan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun har bir jismoniy shaxsga o'rtacha 1,8 million so'm to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkich Farg'ona va Andijon viloyatlarida 1,6 million so'm, Qashqadaryo viloyatida 1,5 million so'm, Xorazm viloyatida 1,4 million so'm, Surxondaryo viloyatida 1,3 million so'm, Samarqand va Buxoro viloyatlarida 1,2 million so'm, Toshkent viloyatida esa 1,1 million so'mni tashkil etadi. Umuman olganda, tahlillar subsidiyalarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganini ko'rsatadi, ya'ni ayrim hududlarda subsidiyalar hajmi nisbatan yuqori, boshqalarida esa pastroq bo'lib, bu holat subsidiya siyosatini yanada takomillashtirish va energiya iste'molining hududlar bo'yicha mutanosib taqsimotini ta'minlash zaruratini ko'rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda energiya samaradorligini oshirish maqsadida soliq qonunchiligiga muvofiq qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatgan jismoniy shaxslarga mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozlar berilishi belgilangan [8]. Ushbu soliq imtiyozlarini joriy etish ekologik toza energiya ulushining oshishiga, uy xo'jaliklarining energiya mustaqilligini kuchaytirishga, atrof-muhitga ijobiy ta'sirni kengaytirishga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga hamda soliq siyosatining samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Xususan, fuqarolarning quyosh panellari yoki boshqa muqobil energiya tizimlariga sarmoya kiritishi ularning energiya ehtiyojlarini qisman yoki to'liq qoplash imkonini beradi, uzoq muddatda energiya xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, shu bilan birga, yashil energiya manbalariga o'tish karbon chiqindilarining qisqarishiga va ekologik barqarorlikning ta'minlanishiga xizmat qiladi. Muqobil energiya sohasining rivojlanishi esa yangi texnologiyalarni joriy etishni talab etib, quyosh panellari va shamol turbinalarini ishlab chiqarish, o'rnatish hamda texnik xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga zamin yaratadi. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari orqali muqobil energiya tizimlariga investitsiyalarni rag'batlantirish uzoq muddatda iqtisodiy va ekologik manfaatlarni ta'minlab, barqaror energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilish tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslar va ularga qo'llanilgan imtiyoz summalarining o'zgarish tendensiyalari 2-jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi. Mazkur jadvalga ko'ra, tahlil qilinayotgan davrda mamlakat miqyosida 242 nafar jismoniy shaxs ushbu imtiyozlardan foydalangan bo'lib, umumiy soliq imtiyozi summasi 233,4 million so'mni tashkil etgan, bunda yer solig'i bo'yicha imtiyozlar 159,9 million so'm (68,5 foiz), mol-mulk solig'i bo'yicha esa 73,5 million so'm (31,5 foiz)ni tashkil etadi. Shu bilan birga, 2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mazkur imtiyozlar faqat budjet, ayniqsa mahalliy budjet daromadlari bo'yicha qisqa muddatli yo'qotishlarni emas, balki uch yillik soliq imtiyozi berilishi natijasida aholini energiya manbalari bilan yetarli darajada ta'minlash va keyinchalik mahalliy budjet daromadlarining mustaqilligini mustahkamlashni ham ko'zda tutadi. Xususan, dastlabki uch yil davomida soliq imtiyozidan foydalangan soliq to'lovchilardan 2027-yilda 634,8 million so'm miqdorida mahalliy soliqlar, ya'ni mol-mulk va yer solig'i undirilishi prognoz qilinmoqda (2-jadval).



2-jadval. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'idan imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslar va ularga qo'llanilgan imtiyoz summaları hamda kelgusi davr uchun prognozlar[7] (mln. so'm).²

T/r	Hudud nomi	2024-yil Mol-mulk solig'i		2024-yil Yer solig'i		2025-yil prog-noz	2026-yil prog-noz	2027-yil undiriladigan solig prognozi
		soni	summa	summa	summa	summa	summa	summa
	Respublika bo'yicha jami	242	233,4	73,5	159,9	323,6	451,7	634,8
1	Qoraqalpog'iston Res.	11	9,9	3,4	6,4	11,9	14,3	17,1
2	Andijon viloyati	12	7,2	2,3	4,9	9,4	12,2	15,8
3	Buxoro viloyati	23	27,4	7,2	20,2	38,4	53,7	75,2
4	Jizzax viloyati	90	91,3	25,7	65,7	137,0	205,4	308,1
5	Qashqadaryo viloyati	18	15,6	4,2	11,4	18,7	22,5	27,0
6	Navoiy viloyati	10	7,1	2,0	5,1	9,2	12,0	15,6
7	Namangan viloyati	15	7,8	2,4	5,5	10,9	15,3	21,4
8	Samarqand viloyati	5	5,6	1,5	4,1	8,4	12,6	18,9
9	Surxondaryo viloyati	4	2,4	0,9	1,5	2,9	3,5	4,1
10	Sirdaryo viloyati	1	0,9	0,1	0,8	1,2	1,5	2,0
11	Toshkent viloyati	18	21,1	10,8	10,3	29,5	41,4	57,9
12	Farg'ona viloyati	1	0,8	0,2	0,6	1,2	1,8	2,7
13	Xorazm viloyati	24	23,4	6,0	17,5	28,1	33,7	40,4
14	Toshkent shahri	10	13,0	6,9	6,1	16,9	22,0	28,6

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'idan imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslar hamda ularga qo'llanilgan imtiyoz summalarining amaldagi holatini hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, soliq imtiyozlaridan foydalanish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax viloyatiga to'g'ri keladi. Xususan, Jizzax viloyatida ushbu ko'rsatkich umumiy soliqlar bo'yicha 91,3 million so'mni (39,1 foiz), mol-mulk solig'i bo'yicha 25,7 million so'mni (35,0 foiz), yer solig'i bo'yicha esa 65,7 million so'mni (41,1 foiz) tashkil etadi. Shuningdek, soliq imtiyozlari bo'yicha keyingi o'rinlar Buxoro viloyatiga (11,7 foiz), Xorazm viloyatiga (10,0 foiz), Toshkent viloyatiga (9,0 foiz) hamda Qashqadaryo viloyatiga (6,7 foiz) to'g'ri kelmoqda.

Soliq turlari kesimida qaranganda, mol-mulk solig'i bo'yicha Jizzax viloyatida 35,0 foiz, Toshkent viloyatida 14,7 foiz, Buxoro viloyatida 9,8 foiz va Toshkent shahrida 9,4 foiz ulush qayd etilgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida 0,1 foiz va Farg'ona viloyatida 0,3 foiz kabi past ko'rsatkichlar kuzatiladi. Bu holat mazkur hududlarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega jismoniy shaxslar sonining juda kamligi, ya'ni atigi 1 nafarni tashkil etishi bilan izohlanadi. Yer solig'i bo'yicha esa Jizzax viloyatida 41,1 foiz, Buxoro viloyatida 12,6 foiz va Xorazm viloyatida 10,9 foiz ulush qayd etilib, ushbu hududlar yetakchi o'rinlarni egallaydi, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarida esa ko'rsatkich 0,4 foizdan iborat bo'lib, eng past natijalar qayd etilgan. Bu holat ham mazkur hududlarda yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega shaxslar sonining juda kamligi bilan izohlanadi.

Samaradorlik nuqtayi nazaridan har bir jismoniy shaxsga to'g'ri keladigan soliq imtiyozlari tahlil qilinganda, mahalliy soliqlar bo'yicha imtiyozlar Toshkent shahrida har bir shaxsga o'rtacha 1,3 million so'mni, Buxoro viloyatida 1,19 million so'mni, Toshkent viloyatida 1,17 million so'mni va Samarqand viloyatida 1,12 million so'mni tashkil etib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Jizzax viloyatida esa ushbu ko'rsatkich 1,01 million so'mni tashkil etadi, bu holat imtiyozdan foydalanuvchi fuqarolar sonining ko'pligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan davrda mamlakat miqyosida qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslar ulushi hali yetarli darajada yuqori emasligini ko'rish mumkin. Chunki respublika miqyosida ushbu soliqlarni to'lovchi jismoniy shaxslar soni 7 milliondan ortiq bo'la turib, ulardan atigi 242 nafari imtiyoz olish huquqiga ega. Bu esa soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, 2025-yil 1-yanvardan boshlab Soliq kodeksining tegishli moddalariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha muhim o'zgartirish kiritildi. Unga ko'ra, uy-joy fondining ko'chmas mulk obyektlarida umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq summasi qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil davomida, quyosh panellari quvvatidan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to'plash tizimi mavjud bo'lgan quyosh panellari o'rnatilganda esa mazkur panellar foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran o'n yil davomida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan

2 Muallif tomonidan yaratildi.



oshmaydigan summaga kamaytiriladi. Ushbu imtiyoz energiya ta'minoti tashkiloti tomonidan jismoniy shaxsning qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma asosida uy-joy fondining bitta ko'chmas mulk obyektiga nisbatan faqat bir marotaba taqdim etiladi hamda jismoniy shaxs tomonidan umumiy quvvati 1 kVtdan ortiq bo'lgan qayta tiklanadigan energiya qurilmalari o'rnatilgan taqdirda qo'llaniladi [8].

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etgan yuridik shaxslarga mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozlar berilishi bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Jumladan, quyosh va shamol energiyasi kabi manbalardan foydalanish atrof-muhitga zararli gazlar chiqindilarini kamaytirib, ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi; mahalliy energiya manbalaridan foydalanish importga qaramlikni qisqartirib, mamlakatning energiya xavfsizligini kuchaytiradi; soliq imtiyozlari korxonalarning moliyaviy yukini yengillashtirib, investitsiyalar hajmini oshirishga imkon yaratadi; qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish orqali daromadlarini oshiradi, bu esa o'rta va uzoq muddatda soliq tushumlarining ko'payishiga xizmat qiladi; mazkur sohaning rivojlanishi yangi ish o'rinlarining yaratilishiga zamin yaratib, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga hamda aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu tariqa, yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlari qayta tiklanadigan energiya sohasining jadal rivojlanishini ta'minlashda muhim rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'idan imtiyozga ega bo'lgan yuridik shaxslar va ularga qo'llanilgan imtiyoz summaları hamda kelgusi davr uchun prognozlar[7] (mln. so'm)³

T/r	Hudud nomi	Yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i		Shundan		2025 yil prog-noz	2026 yil prog-noz	2027 yil undiriladigan soliq prognozi
		soni	summa	summa	summa			
	Respublika bo'yicha	151	3 131,7	2140,2	991,5	7174,1	16442,2	37700,6
1	Qoraqalpog'iston Res.	3	38,9	22,4	16,5	89,5	205,8	473,3
2	Andijon	9	446,9	351,2	95,7	983,2	2163,0	4758,6
3	Buxoro	13	210,9	198,4	12,5	506,2	1214,8	2915,5
4	Jizzax	7	98,4	61,1	37,3	226,3	520,5	1197,2
5	Qashqadaryo	5	30,2	29,1	1,1	72,5	174,0	417,5
6	Navoiy	7	33,8	17,8	16	77,7	178,8	411,2
7	Namangan	7	46,7	25,8	20,9	107,4	247,0	568,2
8	Samarqand	2	59,1	41,3	17,8	130,0	286,0	629,3
9	Surxondaryo	3	28,5	17,4	11,1	62,7	137,9	303,5
10	Sirdaryo	2	54,9	13	41,9	126,3	290,4	668,0
11	Toshkent	15	222,7	183,2	39,5	512,2	1178,1	2709,6
12	Farg'ona	5	1,1	1	0,1	2,4	5,3	11,7
13	Xorazm	4	6,8	5,5	1,3	16,3	39,2	94,0
14	Toshkent sh.	60	1 823,0	1150,1	672,9	4192,9	9643,7	22180,4
15	Yirik soliq to'lovchi	9	29,8	22,9	6,9	68,5	157,6	362,6

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan yuridik shaxslar hamda ularga qo'llanilgan imtiyoz summaları tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu tahliliy ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan. Mazkur jadval ma'lumotlariga ko'ra, tahlil qilinayotgan davrda mamlakat miqyosida qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan yuridik shaxslar soni 143 tani tashkil etib, umumiy soliq imtiyozi summasi 2 984,3 million so'mga teng bo'lgan. Ushbu imtiyozlarning 925,2 million so'mi (31,0 foizi) yer solig'i bo'yicha, 2 059,1 million so'mi (69,0 foizi) esa mol-mulk solig'i bo'yicha to'g'ri keladi.

Tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2025-yil uchun soliq tushumlari 7 174,1 million so'mni, 2026-yil uchun esa 16 442,2 million so'mni tashkil etishi kutilmoqda. 2025–2026-yillar oralig'ida kuzatilayotgan o'sish (129 foiz) soliq solinadigan bazaning kengayishi, iqtisodiy faollikning oshishi hamda soliq imtiyozlarining samarali taqdim etilishi bilan izohlanadi. 2024-yil ijrosi soliq tushumlarining barqarorligini tasdiqlagan bo'lsa, 2025–2026-yillar prognozlarini sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda. 2027-yilda esa soliq tushumlari 37 700,6 million so'mni tashkil etib, to'liq budjetga yo'naltirilishi kutilmoqda, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Umuman olganda, soliq imtiyozlari yuridik shaxslarning faolligini oshirishga xizmat qilib, kelgusida soliq tushumlarining yanada ko'payishiga zamin yaratadi.

3 Muallif tomonidan yaratildi.



Imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxslar soni bo'yicha hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, eng katta ulush Toshkent shahriga to'g'ri kelib, bu yerda ularning soni 60 ta (42 foiz)ni tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati 15 ta (10,5 foiz), Buxoro viloyati 13 ta (9,1 foiz), Andijon viloyati hamda Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi tarkibidagi korxonalar 9 tadan (6,3 foiz) qayd etilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand viloyati va Surxondaryo viloyatlarida esa qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan yuridik shaxslar hozircha mavjud emas.

3-jadval ma'lumotlarini hududlar kesimida tahlil qilganda, soliq imtiyozlaridan foydalanish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Xususan, Toshkent shahrida ushbu ko'rsatkich umumiy soliqlar bo'yicha 1 823,0 million so'mni (61,1 foiz), mol-mulk solig'i bo'yicha 1 150,1 million so'mni (55,9 foiz) va yer solig'i bo'yicha 672,9 million so'mni (72,7 foiz) tashkil etadi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari bo'yicha asosiy ulush Andijon viloyatiga (15,0 foiz) va Toshkent viloyatiga (7,5 foiz) to'g'ri kelmoqda.

Samaradorlik ko'rsatkichlari nuqtayi nazaridan har bir yuridik shaxsga to'g'ri keladigan soliq imtiyozlari tahlil qilinganda, mahalliy soliqlar bo'yicha imtiyozlar Toshkent shahrida har bir yuridik shaxsga o'rtacha 12,75 million so'mni, Andijon viloyatida 3,13 million so'mni, Buxoro viloyatida 1,47 million so'mni hamda Toshkent viloyatida 1,56 million so'mni tashkil etayotgani aniqlanadi. Ushbu holat hududlar kesimida soliq imtiyoziga ega yuridik shaxslar soni va faoliyat ko'lamini bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan davrda mamlakat miqyosida qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganligi uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan yuridik shaxslar ulushi nisbatan past darajada qolayotganini ko'rish mumkin, bu esa soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik texnologiyalarni joriy etish jarayonlarini jadallashtirib, qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritishni rag'batlantiradi, ekologik toza energiya tizimlarini kengroq joriy etishga bo'lgan qiziqishni oshiradi hamda texnologik yangilanish va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot tarmog'ining rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlab, yangi biznes imkoniyatlarini shakllantiradi va iqtisodiyotning diversifikatsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan rag'batlantirish choralari qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishni tezlashtirib, karbon izini qisqartirish orqali ekologik barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek, quyosh va shamol energetikasi, chiqindilarni qayta ishlash hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha innovatsion yechimlarning kengroq joriy etilishiga zamin yaratadi. Natijada, soliq imtiyozlaridan oqilona va tizimli foydalanish O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida barqaror iqtisodiy taraqqiyot va ekologik muvozanatni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirib, nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlik hamda bandlik darajasining oshishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://ggindex-simtool.gggi.org/>
2. [PBL_2013-Environmental-taxes-and-Green-Growth_1009.pdf](#)
3. ADBI Working Paper Series. Dina Azhgaliyeva, Zhanna Kapsaplyamova, and Linda Low No. 861 August 2018. IMPLICATIONS OF FISCAL AND FINANCIAL POLICIES FOR UNLOCKING GREEN FINANCE AND GREEN INVESTMENT
4. [PBL_2013-Environmental-taxes-and-Green-Growth_1009.pdf](#)
5. European Commission. Brussels, 22.12.2021. COM (2021) 566 final.
6. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik. –Toshkent.: "Universitet", 2020. -262 b. (12 b).
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan
8. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 421 va 436-moddalari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>